

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

| | | |
|----------------------------------|-----------|---|
| Sh. Mardonov, O. Jabborova | 6 | Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari |
| A. Abdullayev | 9 | Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi |
| D. Maxmudova | 12 | Maktabgacha yoshdagи bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar |
| M. Musurmonova | 16 | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati |
| R. Musurmanov, M. Musurmonova | 20 | Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida |
| F. Ochilov | 23 | Umumiyo'rta ta'llimmaktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati |
| B. Axmadaliyev | 27 | Umumiy o'rta ta'lim mabkalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakkantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati |
| G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova | 31 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli |
| U. Shermatova | 35 | Millat ruhini saqlash yo'lida |
| F. Atabekov | 39 | Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashhg'ulotlarining o'mni |
| O. Jabborova | 43 | Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limgni rivojlanitirishning pedagogik muammolari |
| M. Achilova | 46 | Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli |
| D. Po'latova | 50 | Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari |
| Z. Umarova | 54 | Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish |



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

| | | |
|---|-----------|--|
| M. Abdullayeva | 57 | Pedagogik va tarbiyaviy ishlар metodikasi |
| G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov | 61 | Uchinchi tartibli tenglamalar |
| X. Gulyamova | 65 | Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi |
| R. Nosirova | 69 | Maktabgacha ta'limga metakognitiv ko'nikmalarni shakkantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni mакtabga tayyorlash |



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

| | | |
|---------------|-----------|--|
| D. Mutalova | 73 | Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida |
| L. Bolivayeva | 76 | Oliy ta'limga "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari |

Raxmatilla MUSURMANOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti

"Pedagogika va menejment" kafedrası dotsenti, pedagogika fanları nomzodi

Mavludaxon MUSURMONOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lif" kafedrası o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLAR VA ULARNING PROFILAKTIKASI MUAMMOLARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Maqlolada maktab o'quvchilari va o'qituvchilari o'rtasida sodir bo'ladigan nizoli vaziyatlarning oldini olish to'grisida fikr yuritilgan. Pedagogik konfliktni yuzaga keltirmasligi uchun tarbiyachi nozik psixolog va mohir pedagog bo'lishi lozim. Pedagogik konflikt – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni, kelishmovchiliklар, tortishuvlar, mojarolar, muloqot jarayonida bir-birlarini tushunishlari, bir-birini idrok qilishlarini o'rGANADI.

Kalit so'zlar. O'quvchi, o'qituvchi, ta'lif-tarbiya samarasi, pedagogik konflikt, pedagogik muloqot, ziddiyatlar, adolatsizlik, ta'na-dashnomlar.

Статья посвящена предотвращению конфликтных ситуаций между учениками и учителями. Чтобы не создать педагогический конфликт, педагог должен быть чутким психологом и квалифицированным педагогом. Педагогический конфликт – это изучение противоречий, разногласий, споров, конфликтов между учителем и учеником, их понимания друг друга в процессе общения.

Ключевые слова. Студент, учитель, воспитательный эффект, педагогический конфликт, педагогическое общение, противоречия, несправедливость, клевета.

The article is devoted to the prevention of conflict situations between students and teachers. In order not to create a pedagogical conflict, the teacher must be a sensitive psychologist and qualified teacher. Pedagogical conflict is the study of contradictions, disagreements, disputes, conflicts between a teacher and a student, their understanding of each other in the process of communication.

Key words. Student, teacher, educational effect, pedagogical conflict, pedagogical communication, contradictions, injustice, slander.

Maktab partasida o'tirgan o'quvchi dars jarayonida diqqatini bir joyga to'plab, ko'zlarini jovidirab maroq bilan dars o'tayotgan o'qituvchini tinglaydi. Mammuniyat bilan xushkayfiyatda yangi dars materiallarini o'zlashtirib, ustoziga havas bilan boqadi. Ko'nglidan bexosdan "Qani endi, hamma o'qituvchilarimiz ham shunday dars o'tishsa" degan fikr o'tishi tabiiy. Bora-bora sinfdagi ko'pchilik o'quvchilarda ana shu fan o'qituvchisiga o'xshab kelajakda o'qituvchi bo'lish istagi paydo bo'ladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqindagina "O'qituvchi va

murabbiylar kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqida ta’kidlaganidek, “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”.

Ta’lim-tarbiyaning samarasi, ta’sirchanligi, avvalo, o‘qituvchiga, uning bilim saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga, mahoratiga bog‘liqdir. O‘qituvchi ijodiy fikrlovchi: umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi o‘z kasbi va bolalarni yaxshi ko‘radigan insonparvar,adolatli, talabchan pedagogik odobli har bir o‘quvchisi ulg‘ayib kelajakda yaxshi inson bo‘lishiga ishonadigan, ularning barkamol shaxs, ishbilarmon kishi bo‘lib yetishishiga ko‘maklashadigan mutaxassis bo‘lmog‘i lozim. Zamonaviy o‘qituvchida ana shunday sifatlar mujassam bo‘lsagina u o‘quvchilar va ota-onalarining hurmat va e’tirofiga tuyassar bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘z vazifa burchini sadoqat bilan bajarib, jamiyat rivojiga hissa qo‘sha oladi. Shunday o‘qituvchilardan ta’lim-tarbiya topadigan shogirdlar hech qachon dars intizomiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lmaydilar.

Agar buning teskarisi bo‘lsa-chi? Darsga o‘z oilaviy muammolari bilan puxta tayyorgarlik ko‘rmasdan, kayfiyatsiz holda sinfga kirib, dag‘al muomila va qo‘pollik bilan munosabatda bo‘lib, alamini o‘quvchilarga sochib tursa-chi? Ustiga-ustak bilimi va tajribasi ham “hamin qadar” bo‘lsa-chi? Bunday o‘qituvchini kim hurmat qiladi?

Hamma gap shundaki, bugungi maktab o‘quvchisi bundan o‘n-yigirma yil oldingi bolalar emas. Bolalar zukko, ko‘ngillari nozik, o‘qituvchining adolatsizliklari, o‘rinsiz ta’na-dashnomalarini ko‘tarishga ular majbur emas. Natijada, sinfdagi o‘quvchilar va shunday toifadagi o‘qituvchilar o‘rtasida sun‘iy jarlik paydo bo‘ladi. Bunday o‘qituvchilarni o‘quvchilar hurmat qilmaydi, hatto u dars beradigan fanidan va darsidan bezishadi.

Konflikt – o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to‘qnashuvidir. Konfliktning yechimini topish – konfliktli vaziyatni yo‘qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga solish bilimlari va ko‘nikmalari majmuidan iboratdir.

Pedagogik konfliktologiya fanining predmeti – konfliktlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tugallanishiga doir umumiyl qonuniyatlardir. Konfliktning o‘zaro ta’sir subyekti – alohida odam, yoki odamlar va odamlar guruhi bo‘lishi mumkin.

Pedagogik konfliktologiyaning fan sifatidagi vazifikasi:

- gumanitar fanlar sohasi sifatida uning obyektiv predmetidagi izlanishlar va asosiy kategoriyalari haqida talabalarda nazariy tasavvurlarni shakllantirish;
- pedagogik faoliyatning insonparvarlikka yo‘naltirilganligini ochib berish;
- konfliktlarni bartaraf etish, oldini olish, yechimini topishning asosiy shakl va usullarini egallah;

– pedagogik konfliktning qonuniyatları va faktorları haqida to‘liq tasavvurni shakllantirishdan iborat;

– pedagogik konfliktli vaziyatlarni muvofiqlashtirish, tahlil qilish va tushunish, umumiyl ilmiy yondashishni aniqlay olishdan iboratdir.

Har qanday fan, fan sifatida o‘zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar orqali o‘z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Fan mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud kasbiy, pedagogik-psixologik hodisa va jarayonlarni, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan tadqiqot usullari bilan o‘rganadi.

Ilmiy pedagogik izlanish jarayonlarini amalga oshirishda quyidagi ilmiy-tadqiqot

metodlaridan foydalaniadi: kuzatish; o'z-o'zini tahlil qilish; og'zaki va yozma so'rov; anketalashtirish; test so'rovi; ishbilarmonlik o'yinlari va h.k.

Pedagogik amaliyotda konfliktni yuzaga keltirmasligi uchun murabbiy-tarbiyachi nizok psixolog va mohir pedagog bo'lishi lozim. Tarbiyasi, nazariy bilimlari va pedagogik sezgirligi vositasida o'qituvchilar va o'quvchilar bilan oson til topisha oladi, mактабда va undan tashqarida birgalikdagi faoliyatni mohirlik bilan uyuştiradi, tarbiyalanuvchining fikri, tuyg'usi va irodasini bevosita va bilvosita boshqarish san'atini egallagan bo'ladi. Tarbiyachi tadqiqotchi, tashkilotchi, jamoatchi, fan, sport, texnika yoki san'atga shaydo bo'lgan inson bo'lishi zarur. U o'z qalbining butun boyligini tarbiyalanuvchilariga hadya etadi.

Pedagogik muloqot tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat fikrlar almashuvi, bir-birlarini tushunishlari va tinglashlari pedagogik muloqotda amalgalashiriladi. Pedagogik muloqotning samarali bo'lishi pedagog va o'quvchilarga bog'liqdir. Pedagog tinglash qobiliyatiga ega bo'lsa, u sabr-toqatlari va bolajon bo'lsa, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida nizo yuzaga kelmaydi. U o'zining kasbiy kompetentligi – pedagogik mahorati bilan tarbiyalanuvchilarni ruhlantiradi, yangi fikr, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi.

Pedagogik konfliktologiya fani – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarni, kelishmovchiliklar, tortishuvlar, mojarolar, muloqot jarayonida bir-birlarini tushunishlari, bir-birini idrok qilishlarini o'rganadi. O'qituvchi bu muammolarni oldini olishi va yechimini topishi uchun o'z mutaxassisligini puxta o'rgangan, muloqot sirlaridan xabardor bo'lishi, darsni tashkil etish bilan birgalikda o'quvchilarni jalb qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Demak, o'qituvchi ijodiy izlanuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lish bilan birga tashabbuskor, yangiliklarga o'ch, izlanuvchan, ilg'or tajribalarni tez o'zlashtiradigan kabi kasbiy-shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi nihoyatda zarur. Bunday sifatlar zamonaviy o'qituvchilar zimmasiga jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar bilan hamohang bo'lmog'i kerak.

Konfliktologiya fani pedagogika, psixologiya, valeologiya, umumiy pedagogika, ma'naviyat va sotsiologiya fanlari bilan bevosita bog'liq va shu fanlar bilan hamkorlikda rivojlanib, takomillashib boradi va o'quvchilarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga munosib hissa qo'sha olishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagи "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nutqi. "Xalq so'zi". – T., 30.09.2020-y.
2. Axmedova M. "Pedagogik konfliktologiya" o'quv-qo'llanma. – T.: 2005-y. B. 17.
3. Rashidov H., Musurmonov R. "Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etishning nazariy asoslari" monografiya. – T.: Noshirlik yog'dusi nashriyoti, 2015-y.